XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 11 - may VI-56-44-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2023 yil 5 maydagi 02-37-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarovga tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan:

- “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari harajatlarini moliyalashtirish maqsadida 120 000 000 (bir yuz yigirma million) so‘m mablag‘ni «Ayollar daftari» jamg‘armasiga;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 120 000 000 (bir yuz yigirma million) so‘m mablag‘ni «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga;

- “Ochiq budjet” axborot portali orqali g‘olib deb topilgan loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 240 000 000 (ikki yuz qirq million) so‘m mablag‘ni

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga;

- moddiy yordam va ko‘makka muhtoj ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 120 000 000 (bir yuz yigirma million) so‘m mablag‘ni “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarori ijrosini ta’minlash uchun 162 000 000 (bir yuz oltmish ikki million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- 253 - sonli referendum uchaskasi joylashgan 9-sonli musiqa va san’at maktabini ta’mirlash harajatlari uchun 23 000 000 (yigirma uch million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- targ‘ibot ishlari tashkil etish harajatlari uchun 15 000 000 (o‘n besh million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi S.Abduazimov, Mahalla xayriya jamoat fondi hisobchisi v.b. B.Boboyevlarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Begiev zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси **Ў.Рахманов**